

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2023
MAXSUS SON

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

D.A.Ganiyeva	
O'zbek va ingliz tillaridagi kelasi zamon shakllarining polifunksionalligi	6
G.S.Mirzayeva	
Lingvokulturmalar adabiy matnni ochib beruvchi kalit sifatida	10
S.N.Fazildinova	
The use of hyperbole in Alisher Navoi's works	14
Sh.T.Axmadjonova	
O'zbek tilshunosligida nutq uslublarining o'rganilish talqini	17
D.S.Usmonova	
Exploring values through phraseological units: a study of axiology in language	20
D.S.Usmonova, K.U.Davlyatova	
Gender features of children's animation and emerging translation challenges	24
N.R.Maxmudova	
O'zbek va jahon tilshunosligida ornitonimlarning o'rganilishi xususida	28
M.Saminjonov	
Rasmiy-jamoaviy qasamlar	31
I.M.Jo'rayev	
Qadimiy qadriyatlar	37
D.R.Ubaydullayeva	
Ingliz va o'zbek tillarida shart komponentli gipotaksemlarning struktural-semantik jihatlari qiyosiy tadqiqi	41
N.Q.Adamboeva	
Ingliz tili badiiy asarlaridagi xushmuomalalik kategoriyasining maksimalari	49
Z.M.Dadahonova	
Components of knowledge control	53
L.Teshebayeva	
O'zbek va ingliz ertaklarida mifonim va spellonimlar	56
Ш.М.Артикова	
Интегральные и дифференциальные признаки тавтологии и плеоназма	60
M.M.Nurmatova	
Paralingvistika jonli muloqot tarjimoni sifatida	66
S.I.Quziyev	
Oliy ta'lim muassasalarida kasbga yo'naltirilgan chet tilini o'qitishning xususiyatlari	70
T.Z.Ismonova	
Problems and solutions of grammar translation method	76
N.A.Komilova	
Zamonaviy tilshunoslikda gender nazariyasi asoslari	80
D.X.Madazizova	
The significance of text and discourse in enhancing communicative competence	83
S.A.Yusupova	
Morphemic units expressing honour in different system languages	86
N.Sidikova	
Stevan Sveygning "Noma'lum ayol maktubi" hikoyasida ayol ruhiyati tasviri	91
Sh.X.Nuritdinova	
Nemis va o'zbek tillarida kelishik kategoriyasi tipologiyasi	94
N.K.Abbasova, N.A.Abdullaeva	
Semantic analysis of english phrasal verbs	98
B.A.Mukhtorova	
The "Concept" in linguistics	102
R.A.Ortiqov	
Ulug'bek hamdamning "Ota" asaridagi monologlar tahlili	106
Sh.O.Abdiloyev	
Zoonim frazeologizmlar xalq tarixi va madaniyati in'ikosi	110

**INGLIZ TILI BADIY ASARLARIDAGI XUSHMUOMALALIK KATEGORIYASINING
MAKSIMALARI**

(S.Chboskiyning "The Perks of being a wallflower" asari misolida)

MAXIMS OF THE CATEGORY OF POLITENESS IN ENGLISH FICTION

(In the example of S. Chbosky's work "The Perks of being a wallflower")

**МАКСИМЫ КАТЕГОРИИ ВЕЖЛИВОСТИ В АНГЛОЯЗЫЧНОЙ
ХУДОЖЕСТВЕННОСТИ**

(На примере произведения С. Чбоского «Хорошо быть тихоней»)

Adamboeva Nafisa Qodirberganovna¹

¹Farg'ona davlat universiteti, ingliz tili kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola J. Lich ta'limotiga asoslangan holda, xushmuomalalik kategoriyasi maksimalarini ingliz zabon badiiy matni asosida tahlil qilingan. Ta'limotga ko'ra har bir xushmuomalalik maksimalariga va tasniflash bosqichlariga ko'ra aksiologik tahlil qilishda tavsiflovchi sifat usulidan foydalanilgan. Ingliz yozuvchisi Stiven Chboskiyning "The Perks of being wallflower" asaridagi misollar orqali ingliz zabon xalqlarning nutqida xushmuomalalik kategoriyasini qo'llanilish aksiologik darajasi ko'rsatildi va bu aniqlash jarayoni ingliz qadriyatida introvert xulq-atvoriga ega so'zlovchilar katta ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Аннотация

На основе учения Дж. Лича на основе английского художественного текста проанализированы максимы категории вежливости. Согласно учению, при аксиолингвистическом анализе каждой максимы вежливости и этапов классификации использовался описательный качественный метод. Аксиологический уровень использования категории вежливости в речи англоязычных народов показан на примерах из произведения английского писателя Стивена Чбоски «Хорошо быть тихоней» и определено, что говорящие с интровертным поведением являются большое значение в английском значении.

Abstract

Based on J. Leech's teaching, maxims of politeness category were analyzed on the basis of English literary text. According to the teaching, descriptive qualitative method was used in axiologistic analysis of each politeness maxims and classification stages. The axiological level of using the category of politeness in the speech of English-speaking peoples was shown through examples from the work of the English writer Steven Chbosky, "The Perks of being a wallflower", and it was determined that speakers with introverted behavior are of great importance in the English value.

Kalit so'zlar: xushmuomalalik maksimalari, introvert, qadriyat, tavsiflovchi sifat, odob, hamdardlik, sahiylik, rozilik, ma'qullash, kamtarlik.

Ключевые слова: максимы вежливости, интроверта, ценности, описательности, порядочности, симпатии, щедрости, приятности, одобрения, скромности.

Key words: maxims of politeness, introvert, value, descriptive quality, decency, sympathy, generosity, agreeableness, approval, modesty.

KIRISH

Badiiy asardagi xushmuomalalik kategoriyasini aksiologik yondashuv kontekstida tahlil qilish matnning badiiy tuzilishiga chuqur kirib borish va muallifning o'quvchilarga xabarni topish va ochib berish qobiliyatini shakllantirishni ta'minlay oluvchi faoliyatining murakkab jarayonidir. Bu kabi murakkab jarayonni amalga oshirishda xushmuomalalik kategoriyasining maksimalari representatsiyasini tadqiq qilish o'z o'rniga egadir. Chunki, ular madaniyat, tarix va adabiyotni tushunish uchun universal va samarali yondashuvni ta'minlashi hamda ularni o'rganishning uslubiy asoslarini kengaytira olishi mumkin.

Har bir inson, o'z ixtiyori bilan yoki beixtiyor, hayotiy ko'rsatmalar sifatida qadriyatlarga amal qiladi. Chunonchi, inson o'zining "dunyoni aksiologik ko'rishi"ga asoslanib, uning hayotida paydo bo'ladigan voqeiklarga nisbatan qiymat mulohazalarini shakllantiradi [4;3]. U esa shaxsiy qadriyatlar va ko'rsatmalarni belgilash orqali biz insonning xatti-harakatlari va nutqiy xarakterini, jumladan xushmuomalali xulqini talqin va tahlil qilish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Xushmuomalalikda lisoniy xususiyatlarni tahlil qilish maqsadida, bir nechta ingliz yozuvchilari asarlari, jumladan Stiven Chboskiyning "The Perks of being a wallflower" romanini tanlab oldik va asarni bir necha marta va diqqat bilan o'qish natijasida to'plangan hamda tadqiqot bilan bog'liq muhim so'zlarni, jumalarni o'rganib chiqdik. Muammoni tahlil qilishda J. Lich nazariyasiga asoslandik va asarda oltita maksimal xushmuomalalik tamoyillari foydalanilganligini aniqladik. Ularni xushmuomalalik maksimalariga va tasniflash bosqichlariga ko'ra aksiologvistik tahlil qilishda *tavsiflovchi sifat usulidan* foydalandik. Tavsiflovchi sifat usuli — bu ma'lumotlarni to'plash, tavsiflash, tasniflash va tahlil qilish va keyin xulosa chiqarish kabi usullardan foydalanadigan jamlanma tadqiqot usulidir [3;64]. 1999 yilda MTV Books/Pocket Books tomonidan nashr etilgan Stiven Chboskiyning *The Perks of Being a Wallflower* ("The Perks of being a wallflower" by Stephen Chbosky) romanidagi tadqiqotning asosiy ma'lumotlar manbai 231 sahifani tashkil etdi.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Tahlilimiz natijasi shuni ko'rsatdiki, asarda quyidagi oltita xushmuomalalik kategoriyasi maksimalari qo'llanilgan: 1) odob maksimasi (*tact maxim*); 2) saxiylik maksimasi (*generosity maxim*); 3) ma'qullash maksimasi (*approbation maxim*); 4) kamtarlik maksimasi (*modesty maxim*); 5) rozilik/kelishuv maksimasi (*agreement maxim*) va 6) hamdardlik maksimasi (*sympathy maxim*) kabilar.

1) odob maksimasi (*tact maxim*)

Bu maksimada qadriyatlar orqali xushmuomalalikni ifodalanishida so'zlovchi "boshqalarga yo'qotishni anglatuvchi ishonch ifodasini minimallashtiradi, lekin boshqalarga foyda keltiradigan ishonchni maksimal darajada oshiradi". Masalan: *I felt so bad. I didn't know what was going on. Mom was trying to be really nice because when I get like this she is one that tries real hard to keep things calm.*

"I'm sorry, Mom"

"No. Don't be sorry. You want to get a nice present for your father. That's a good thing". Asardan olingan ushbu gapda, so'zlovchining *"I felt so sad"* gapiga, tinglovchi *"No. Don't be sorry. You want to get a nice present for your father. That's a good thing."* deb so'zlovchining qayg'usini kamaytirishga harakat qildi.

2) saxiylik maksimasi (*generosity maxim*)

J. Lich "Principles of Pragmatics" nomli kitobida saxiylik maksimasini "boshqalarga xarajat ifodasini minimallashtirish; foyda ifodasini esa boshqalarga maksimal darajada oshirish" deb ta'kidlaydi. Misol uchun: *I looked around, and I saw that Sam and Patrick had left with Brad. That's when Bob started passing around food. "Would you like a brownie?" "Yes, thank you." I was actually quite hungry because normally Sam and Patrick take me to the Big Boy after the football games and I guess I was used to it by now.*

Ushbu gapda, Bob o'zining foydasini kamaytirdi, chunki u shokolodlarni Charli bilan bo'lishishga majbur bo'ldi. Bu gap saxiylik maksimiga mos edi. Saxiylik maksimasi, so'zlovchi o'ziga zararni maksimal darajada oshirib, o'ziga foydani kamaytirganda yuzaga keladi. Bundan tashqari, so'zlovchi tinglovchi bilan birdamligini ta'rifladi. Demak, so'zlovchi ham tinglovchi bilan hamjihatlikni qo'llaydi. Shu bois, so'zlovchi ham o'z nutqida birdamlik shkalasini qo'llaydi. Yuqoridagi ibora xushmuomalalik tamoyilini, ayniqsa, saxovat maksimasini qo'llash tinglovchini yoqimli qilishini bildiradi. Bundan tashqari, bu yanada xushmuomalaliroq edi.

3) ma'qullash maksimasi (*approbation maxim*)

J. Lich "Principles of Pragmatics" nomli kitobida ma'qullash maksimasi "boshqalarni yomon ko'radigan e'tiqod ifodasini minimallashtiradi; boshqalarning roziligini bildiradigan e'tiqodni maksimal darajada ifodalaydi", deb izohlaydi. Masalan: *"When the show was over, we all bowed together, and there was applause everywhere. Patrick even shoved me in front of the rest of the cast to take my own personal bow. I think this is the invitation for new cast members. All I could think was how nice it was that everyone applauded for me and how glad I was feather boa. Especially my dad. That's when Mary Elizabeth asked me to the Sadie Hawkins' dance after she said, "you looked really good in your costume." Ushbu misoldagi "you looked really good in your costume" gapi bo'lib, Meri Elizabetning so'zlari ma'qullash maksimaliga bo'ysundi, chunki u yaxshi gapirdi va Charlga yoqimsiz so'z aytishdan qochdi. U Charlini qoralashni minimallashtirdi va Charlini maqtashni maksimal darajada oshirdi. Shunday qilib, bu gap minnatdorchilik maksimasi sifatida ham tasniflanadi. Maqtov maksimasida odob tamoyilidan foydalanish so'zlovchiga*

suhbatdoshga nisbatan xushmuomala bo'lishga yordam beradi, chunki so'zlovchi maqto'vni maksimal darajada oshirib, tinglovchini kamsitadi.

4) kamtarlik maksimasi (modesty maxim)

J. Lich o'zining nazariyasida kamtarlik maksimasi "o'zini maqtashni minimallashtirish, o'zini kamsitishni maksimal darajada ifodalash" ekanligini ta'kidlaydi. Misol uchun: "*Bill looked at me looking at people, and after class, he asked me what I was thinking about, and I told him. He listened and he nodded and made "affirmation" sounds. When I had finished, his face changed into a "serious talk" face. "well, are you dancing at these dances"? "I'm not a very good dancer".*" Asardan olingan ushbu parchada, "*I'm not a very good dancer*" gapi kamtarlik maksimasidan foydalanilgan deb tasniflash mumkin, chunki unda qanday qilib kamtar bo'lishni xohlayotganini ko'rsatilgan. U yaxshi raqqosa emasligini bilar edi. Shunday qilib, u o'zini kamsitishni maksimal darajada oshirdi va o'zini maqtashni minimallashtirdi.

5) rozilik/kelishuv maksimasi (agreement maxim)

Rozilik/kelishuv maksimasi "o'z va boshqalar o'rtasidagi kelishmovchilikni minimallashtirish hamda o'zi va boshqalar o'rtasidagi kelishuvni maksimal darajada ifodalashdi" [2;35]. Rozilik maksimasini aniqroq tushunish uchun ushbu misolni keltiramiz. "*When I saw Sam and Patrick at school today, they both agreed that my Mom has very good taste in clothing. I told my mom this when I got home from school, and she smiled*". Gapdagi "*they both agreed that my Mom has very good taste in clothing*" gapida maksimal kelishuv tamoyilini ko'rsatish mumkin. Bu gap Sem va Patrikning Charlining onasining kiyim tanlashdagi didi juda yaxshi ekanligiga rozi bo'lganligini tushuntiradi.

6) hamdardlik maksima (sympathy maxim)

Maksimalning bu turi haqida J. Lich "boshqalarga nisbatan jirkanishni/yoqtirmaslikni minimallashtirish va boshqalarga hamdardlikni maksimal darajada oshirish" deb tushuntiradi. Asardagi ushbu parcha hamdardlik maksimasiga mos tushadi. "*I try to think of my family as a reason for me being this way, especially after my friend Michael stopped going to school one day last spring and we heard Mr. Vaughn's voice on the loud- speakers. "Boys and girls. I regret to inform you that one of our students has passed on. We will hold a memorial service for Michael Dobson assembly this Friday."*" Ushbu parchada Janob Von o'z nutqida "*regret*" (a feeling of sadness, repentance, or disappointment over something that has happened or been done [11;5] – sodir bo'lgan yoki qilingan narsadan qayg'u, tavba yoki umidsizlik hissi) so'zini ishlatib, Maykl Dobson bilan sodir bo'lgan voqeaga hamdardlik bildirgani ma'lum bo'ldi. Bundan tashqari, "*regret*" janob Von ham Maykl Dobsonning o'limidan qayg'uda ekanligini va hamdardligini bildirdi. Janob Vonning o'zi va boshqalar o'rtasidagi antipatiyasi va o'zi va boshqalar o'rtasidagi hamdardlikni maksimal darajada oshirdi, shuning uchun bu nutqni hamdardlik maksimasidan foydalanilgan deb tasniflanishi mumkin.

XULOSA

Yuqorida Stephen Chboskyning "*The Perks of being a wallflower*" romanidagi qahramonlar qo'llagan xushmuomalalik strategiyasini [1;97] aniqlash amalga oshirildi. Bu orqali biz ingliz zamon xalqlarning nutqida xushmuomalalik kategoriyasini qo'llanilish aksiologik darajasini aniqladik. Natija shuni ko'rsatdiki, ingliz qadriyatida *introvert xulq-atvoriga ega so'zlovchilar* katta ahamiyatga ega ekanligi bu xalqning so'zlashuv qadriyatlarini ekanligidan dalolatdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Brown, P., and Levinson, S. Politeness: Some Universals in Language. Cambridge: Cambridge University Press. 1987. – P. 97
2. Leech G. Principles of Pragmatics. – New York: Oxford university press, 2014. – P.35.
3. Қамбаров Ғ. С. Баҳо муносабати ва унинг ўзбек тилида ифодаланиши. Фил. Фан. номз. дисс. автореф. –Тошкент, 2008, Б 3.
4. Юлдашев М. М. Бадий матнинг лингвопоэтик тадқиқи, филол. фан. док. дисс., — Т., – 2008, б- 64
5. Адамбоева, Н. (2023). ХУШМУОМАЛАЛИК КАТЕГОРИЯСИ МАКСИМАЛЛАРИНИ САЛБИЙ БАҲОЛАНИШИНИНГ ВЕРБАЛИЗАЦИЯСИ. Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования, 2(14), 4-6.
6. Адамбоева, Н. (2023). ХУШМУОМАЛАЛИК КАТЕГОРИЯСИ МАКСИМАЛЛАРИНИ САЛБИЙ БАҲОЛАНИШИНИНГ ВЕРБАЛИЗАЦИЯСИ. Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования, 2(14), 4-6.
7. Адамбоева, Н. (2023, December). ХУШМУОМАЛАЛИКНИ АМАЛГА ОШИРИШ ВОСИТАЛАРИ ВА МАТНИНГ МАЗМУН ТОИФАЛАРИ. In Fergana state university conference (pp. 182-182).

8. Qodirberganovna, A. N. РОЛЬ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ И СТУДЕНТОВ В КОММУНИКАТИВНОМ МЕТОДЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ЯЗЫКА В КЛАССЕ THE ROLE OF TEACHERS AND STUDENTS IN COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING CLASSROOM. Журнал выпускается ежемесячно, публикует статьи по гуманитарным наукам. Подробнее на, 45.

9. Адамбоева, Н. (2023, December). ХУШМУОМАЛАЛИКНИ АМАЛГА ОШИРИШ ВОСИТАЛАРИ ВА МАТННИНГ МАЗМУН ТОИФАЛАРИ. In Fergana state university conference (pp. 182-182).

10. Qodirberganovna, A. N. (2023). Representation of Maximums in Axiolinguistic Evaluation of Politeness Category in Uzbek and English Languages. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(6), 39-41

VEBSAYTLAR

11. <https://maksima.encyclopedia.com/humanities/dictionaries-thesauruses-pictures-and-press-releases/regret-0>